

UDK 373.24

MAKTABGACHA KATTA YOSHDAGI BOLALARNING KOGNITIV QOBILIYATLARINI IJODIY FAOLIYAT VOSITASIDA RIVOJLANTRISH TAMOYILLARI

Xakimova Nafosat Solijon qizi

Namangan Davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti

E.mail: nafosathakomovagmail.com

ORCID: <https://orcid.org/0009-0003-0742-333X>

Tel: 998886465552

Annotatsiya. Ushbu maqola maktabgacha katta yoshdagi bolalarning kognitiv qobiliyatlarini ijodiy faoliyat vositasida rivojlantrish tamoyillari haqida. Bolalar rivojlanishida ushbu tamoyillarning muhim jihatlari, metodlari, amaliyotdagi holatlari bayon etilgan.

Kalit so'zlar: kognitiv qobiliyat, ijodiy motivatsiya, multidissiplinar yondashuv, individuallik, ijtimoiy hamkorlik, Reggio Emilia yondashuvi.

PRINCIPLES OF DEVELOPING COGNITIVE ABILITIES OF OLDER PRESCHOOL CHILDREN THROUGH CREATIVE ACTIVITIES

Abstract. This article is about the principles of developing the cognitive abilities of older preschool children through creative activities. The important aspects, methods, and practical cases of these principles in the development of children are described.

Keywords. Cognitive abilities, creative motivation, multidisciplinary approach, individuality, social interaction, Reggio Emilia approach.

ПРИНЦИПЫ РАЗВИТИЯ ПОЗНАВАТЕЛЬНЫХ СПОСОБНОСТЕЙ ДЕТЕЙ СТАРШЕГО ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА ПОСРЕДСТВОМ ТВОРЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Аннотация. В статье рассматриваются принципы развития познавательных способностей детей старшего дошкольного возраста посредством творческой деятельности. Описываются важные аспекты, методы и практические примеры применения этих принципов в развитии детей.

Ключевые слова: познавательные способности, творческая мотивация, междисциплинарный подход, индивидуальность, социальное взаимодействие, подход Реджо-Эмилия.

KIRISH

Maktabgacha katta yosh bola rivojlanishining asosiy bosqichi hisoblanadi chunki, bola 6 yoshga yetganda miya po'stlog'ining asab katakchalari rivojlanib,

og'irligi va tashqi ko'rinishidan katta odamlarnikiga yaqinlashadi. Shu sababli bolaning asab tizimi bilan juda ehtiyotkorona munosabatda bo'lish lozim. Uning nutqi ravon, so'z boyligi yetarli hamda konitiv qobiliyatga ega bo'lishi kerak. Kognitiv qobiliyat bu miyamizning malumotlarni olish, boshqarish, saqlash va ishlatish uchun foydalanadigan aqliy jarayondir. Maktabgacha katta yoshdagi bolalar har kuni eng oddiy qarorlarni qabul qilish uchun kognitiv qobiliyatlardan foydalanadilar ya'ni ikki turdagi ovqatdan birini tanlab yeyishi, markazlar faoliyatidan birini tanlab mashg'ulotda qatnashishishi va boshqalar. Maktabgacha katta yoshdagi bolalar ijodiy faoliyat bilan shug'ullanishlari ularda tevarak atrofdagi narsalarga ijodiy munosabatni tarbiyalashda, faollikni va mustaqil fikrlashni taqozo etadi. Bu bilan bolalarda, faollikni va mustaqil fikrlashni taqozo etadi. Bu bilan bolalarda aql-idrok, o'tkir zehn, kognitiv qobiliyatlarni tarbiyalab boramiz. Kognitiv qobiliyatlar miyaning asosiy funksiyalari sifatida fikrlash, o'qish, o'rganish, malumotni saqlash, fikr yuritish va diqqani jamlashni osonlashtiradi. Kognitiv qobiliyatlar muammoni hal qilish, ma'lumotni eslab qolish va qaror qabul qilishda qo'llaniladi [1]

ADABIYOTLAR TAHLILI

Kognitiv qobiliyatni rivojlantrishga oid qarashlar XX asrda paydo bo'lgan va rivojlana boshlagan, kognitiv nazariyalar asta-sekin bir qancha olimlar tomonidan yaratila boshlangan. Kognitiv qobiliyatni rivojlantrishdagi nazariyalar idrok, tafakkur, xotira va boshqa aqliy jarayonlariga bevosita bog'liqligi keltirib o'tilgan. Bolalardagi kognitiv qobiliyatlarni rivojlantrish haqida psixolog J.Pyajening kognitiv rivojlanish nazariyasi ilgari surilgan, Xususan, bolalardagi abstrakt tushunchalarni o'zlashtrishda avval ularni aniq va vizual ko'rinishda tasavvur qilishga moyil bo'ladi. Shu sababli sonlarni real hayotiy obrazlar bilan bog'lash ularning eslab qolish qobiliyatini oshiradi hamda maniqiy tafakkurning shakllanishiga xizmat qiladi. [2] Kognitiv qobiliyatlar zahirida aqliy, bilish faoliyatlar yotadi. Taniqli pedagog N.K. Krupskaya bolalarning aqliy tomondan rivojlanishida nutqni, voqealar o'yinini, tasviriy faoliyatni rivojlantrishni shuningdek, tevarak-atrofdagi borliqqa to'g'ri munosabatni tarkib topdirish uchun bilim muhim rol o'ynashini aytgan [3]. Kognitiv qobiliyat bevosita kognitiv faoliyat bilan bog'liq chunki faoliyatlar jarayoni rivojlanib qobiliyatlarni rivojlanishiga asos bo'ladi. "Kognitiv faoliyat" tushunchasi kognitiv

pedagogika va kognitiv psixologiyada keng qoʻlanilib M.A.Danilov, A.A.Lyublinskaya, V.K.Buyrak, T.I.Shamalova kabi olimlar kognitiv faoliyatni aqliy faoliyatning bir turi yoki sifati deb hisoblasa, D.B.Godovikova, E.I.Shcherbakovlar esa bolaning bilimga boʻlgan tabiiy istagi sifatida taʼriflaydi[4]. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarning kognitiv rivojlanishi nutq, muloqot bilan uzviy bogʻliq. M.M.Alekseva, V.I.Yashin kabi olimlar taʼkidlaganidek: "Nutqni oʻzlashtrishda bola mos keladigan soʻzlarda aks ettirilgan narsalar, belgilar, harakatlar va munosabatlar toʻgʻrisidagi bilimlar ham oʻzlashtradi. Shu bilan birga, u nafaqat bilimga ega boʻladi, balki oʻylashni ham oʻrganadi, chunki oʻylash-ovozsiz yoki baland ovozda gapirishdir, gapirish esa fikrlashdir. Bolalarning nutqini oʻzlashtrishdan soʻng, ularning bilim faoliyati yangi sifat darajasiga koʻtariladi"[5]. L.S.Vigotskiy kognitiv faoliyatni oʻyin faoliyati bilan bogʻliqligini etirof etib kognitiv koʻnikmalarni shakllanishini asoslaydi. "Oʻyin bolalarning ijtimoiy va kognitiv rivojlanishida hal qiluvchi oʻrin tutadi"[6] bundan tshqari ertak ham bolaning mantiqiy fikrlashini, xayol, fantaziya, tasavvurini rivojlanishini taʼkidlaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maktabgacha katta yoshdagi bolalarning kognitiv qobiliyatini ijodiy faoliyat vositasida rivojlantrishda quyidagi metodlar samarali hisoblanadi.

Rolli va didaktik o'yinlar orqali o'rganish metodi

Sensor rivojlanish metodi negizidagi Reggio Emilia yondashuvi

Muammoli vazifalar, ijodiy tafakkurni rivojlantrish metodlari

1.rasm Maktabgacha katta yoshdagi bolalarning kognitiv qobiliyatini ijodiy faoliyat vositasida rivojlantrish metodlari

Rolli va didaktik o'yinlar orqali o'rganish metodlari. Rolli o'yinlar bolaning hayotiy vaziyatlarini tahlil qilish orqali muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantradi. Ertak qahramonlari rollari, oila muhiti bilan bog'liq rollar bolalarni ijodiy va salbiy fazilatlarni tez va oson ajratib olishga yordam beradi. Didaktik o'yin-bolalarni qiziqishini oshirishga, yangi bilimlarni oson o'zlashtirishga yordam beradi. Ushbu o'yin orqali boladagi kognitiv ko'nikmalarning shakllanishi mumkin.


- Sensor rivojlanish metodidan Reggio Emilia yondashuvi- sensor rivojlanish dunyo mamlakatlari tan olgan rivojlanish turi hisoblanadi. Maktabgacha katta yoshdagi bola sezgi a'zolari orqali yangi bilimni o'zlashtirishi bu eng katta samara beradi, mayda motorika aqliy rivojlanishning asosi hisoblanadi, u to'g'ridan-to'g'ri miyadagi neyronlarga tasir qiladi. Shu sababli bola bilan qo'l va barmoq harakat mashqlari, tajibalar uning bilish jarayonini rivojlantrishga yordam beradi. Reggio Emilia yondashuvi bolaga hurmat va uning salohiyatiga ishonish asosida quriladi. Bu yondashuv bolalarni standart testlar va aniq bilimlar uchun emas balki hayotning murakkabligiga tayyorlash, ularning kritik fikrlash, ijodkorlik va muammoni hal qilish qobiliyatlarini rivojlantrishga qaratilgan. Ushbu yondashuvning asosiy savollaridan biri "Bola nimaga qiziqadi va u nima haqida o'ylayapti?"

- Muammoli vazifalar va boshqotirmalar, ijodiy tafakkuni rivojlantrish metodlari- muammoli vaziyatlar bolani mantiqiy fikrlashga undaydi va fikrlash faolligini oshiradi, muloqot jarayoni jadallashadi, o'z fikrini bayon qila oladi. Ijodiy tafakkurni rivojlantrish metodlari esa bolalardagi tasavvur qilish, xotira va bilish jarayonlarini rivojlantrishga xizmat qiladi.

NATIJALAR TAHLILI

Maktabgacha katta yoshdagi bolalar aqliy faoliyati bilimlarni kun davomid yangi o'yinli texnologiyalarga asoslangan faoliyatlar bilan shyg'ullanib qabul qilsa, ijodkorlik, kognitivlik ko'nikmalari rivojlanadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi katta guuhlarda olib boriladigan tajribalardan keying natijalar shuni ko'rsatadiki, bolalarning kognitiv qobiliyatini ijodiy faoliyat vositasida rivojlantrish tamoyillari muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Ushbu tamoyillar asosida bola rivojlantrilsa uning kognitiv qobiliyati, kreativligi rivojlanadi. Maktabgacha katta

yoshdagi bolalarga kognitiv qobiliyatini ijodiy faoliyat vositasida rivojlantrishda asosiy tamoyillar mavjud bo'lib, bu tamoyillar bolaning tasavvurini kengaytirish, kreativlik, mantiqiy fikrlashga undaydi.



2. rasm. Maktabgacha katta yoshdagi bolalar kognitiv qobiliyatini ijodiy faoliyat vositida rivojlantirish tamoyillari

Maktabgacha katta yoshdagi bolalarni kognitiv qobiliyatini ijodiy faoliyat vositasida rivojlantirishning asosiy va eng zarur tamoyillariga aohida to'xtalib o'tamiz. Jumladan bulardan biri faollik va mustaqillikdir. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda faollik va mustaqillik ularning o'z fikrlash qobiliyatini mustaqil ravishda ishlata olishi va ijodiy jarayonda faol ishtirok etishini taminlaydi. "Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda faollikning asosan uch xil ko'rinishi mavjud bo'lib, bular: jismoniy, psixik, ijtimoiy faollikdir" [7]. Maktabgacha katta yoshdagi bolaning individual va yoshga xos yondashuvi uning yoshi, rivojlanish darajasi, qiziqishi va shaxsiy xususiyatlarini hisobga olgan holda ta'lim-tarbiya jarayonini tshkil etishni nazarda tutadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida yosh guruhlariga mos tarzda mashg'ulotlar olib boriladi. Har bir yosh guruhining o'ziga xos psixologik va kognitiv xususiyati mavjud. 5-6 yoshdagi bolada tasavvur, mantiqiy, fikrlash va kreativlik rivojlanadigan yosh bosqichi hisoblanadi. Maktabgacha katta yoshdagi

bolalarda qo'llanadigan multidissiplinar yondashuv (multidissiplinar so'zi "ko'p fanli", "ko'p sohalararo" degan ma'nolarni anglatadi) kognitiv qobiliyatni rivojlantirishda hamda tarbiyachilar uchun samarali natijalarni olib keladigan yondashuv hisoblanadi. Maktabgacha katta yoshdagi bola muammolarni hal qilishda ijodiy fikrlashni rivojlantirishga, yangi g'oyalarni kashf etishga va o'zaro hamkorlik qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga eng asosiysi kognitiv qobiliyatni rivojlantirishga asos bo'ladi. "Multidissiplinar yondashuvga ega pedagoglar jamoasi nutq mashg'ulotlari bilan birga musiqiy notalarni ijro etishlari, sport mashg'ulotlari bilan badiiy ijod mashg'ulotlarini uyg'unlashtirish, bolalarni individual xususiyatlarini ilg'ab olishga yordam beradi"[8] Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi katta guruhlar bilan olib boriladigan multidissiplinar yondashuv asosidagi matematika mashg'ulotlari sa'nat bilan birlashtirgan holda, bolalar geometrik shakllarni chizishi orqali matematik tushunchalarni o'rganadi. . Maktabgacha yoshdagi bolalar ijodiy motivatsiya va erkinlikning muhimligi shundaki, bolani berigan erkinlik uning mustaqil shaxs bo'lib yetishishiga asos bo'ladi. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda olib boriladigan ijtimoiy hamkorlik tamoyili bolalarning guruhdagi bolalar bilan ijodiy loyihalar ishlashda namoyon bo'ladi. Bolalarga bilim berishning jamoa usulida olib borish katta ahamiyatga ega. Ushbu faoliyatlar bolalarda bir-biriga faol tasir etadi, o'z tashabbusi, topog'onligini namoyon qilish imkoniyatini tug'diradi.

XULOSA

Maktabgacha katta yoshdagi bolalar kognitiv qobiliyatini rivojlantirishning eng ahamiyatli tomoni shundaki, ulardagi bilish jarayonlari va fikrlash bilan bog'liq muammolarni bartaraf etadi. Yani, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida olib borilgan faoliyatlar, pedagogik shart-sharoitlar, innovatsion muhit ularning kognitiv qobiliyatini rivojlantirish asosi sanaladi. Maktabgacha katta yosh bolaning ijodiy faoliyatini rivojlantirish uning kreativligini, yangi g'oyalarni ishlab chiqishga yo'l ochadi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Djamilova N., Khakimova N. The Impact of Creativity on the Development of Cognitive Skills of Preschool Children Age 5–7. ISSN: 2692-5206, Impact Factor: 12.23.

- American Academic Publishers, Volume 05, Issue 02, 2025. Journal: <https://www.academicpublishers.org/journals/index.php/ijai>
2. T.S.Kalekeva "sonlarni obrazlar bilan bog'lash orqali mantiqiy va ijodiy fikrlashni rivojlantirish metodikasi" ilmiy maqola Nukus 2021-y
 3. P.Yusupova "Maktabgacha tarbiya pedagogikasi" "O'qituvchi nashriyoti" 1993y 68-b
 4. M.Q.Qodirova "Maktabgacha yoshdagi bolalar kognitiv faoliyatini rivojlantirish" ilmiy ommaviy maqolalar info@jdpu.uz
 5. Sh.muhammedova MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR KOGNITIV RIVOJLANISHINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS) Халқаро анжуман тўплами. Тошкент 676.b
 6. Vigotiskiy, L.S.Mind in society: The development of Higher psychological processes. Cambridge 1978. 159
 7. M.G.Davletshin, Sh.Do'stmuhammedova, M.Mavlonova va b. "Yosh va pedagogik psixologiya" O'quv qo'llanma Toshkent-2007 y 53-b
 8. B.N. Alchurazova "Ko'p tarmoqli maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'quv-tarbiyaviy jarayonni tashkil etishning o'ziga xosligi" Inter educational. <https://cyberleninka.ru/>